

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TERAPIYA
FANIDAN MALAKA SINVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TERAPIYA FANIDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Terapiya talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Terapiya

1. Ichki kasalliklar faning rivojlanish tarixi va terapevtik kasalliklar fanining rivojlanish tarixi va xususiyatlari. Bemorlarni tekshirish usullari;
2. Nafas olish a‘zolari kasalliklari va nafas olish a‘zolari kasalliklarida hamshiralik ishi;
3. Yurak-qon tomir tizimi a‘zolari kasalliklari va yurak-qon tomir tizimi a‘zolari kasalliklarida hamshiralik ishi;
4. Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklari va ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklarida hamshiralik ishi;
5. Buyrak va siydik ajratish yo‘llari kasalliklari, buyrak va siydik ajratish yo‘llari kasalliklarida hamshiralik ishi;
6. Qon va qon ishlab chiqarish a‘zolari kasalliklari va qon va qon yaratish a‘zolari kasalliklarida hamshiralik ishi;
7. Ichki sekretsiya bezlari va moddalar almashinuvi kasalliklari, ichki sekretsiya bezlari va moddalar almashinuvi kasalliklarida hamshiralik ishi;
8. Suyak-mushak tizimi va biriktiruvchi to‘qima kasalliklari va suyak-mushak va biriktiruvchi to‘qima kasalliklarida hamshiralik ishi;
9. O‘tkir allergozlar. Allergiya va allergik kasalliklar. Allergik holatlarda hamshiralik ishi;

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	<p>Ichki kasalliklar faning rivojlanish tarixi va terapevtik kasalliklar fanining rivojlanish tarixi va xususiyatlari. Bemorlarni tekshirish usullari</p>	<p>Ichki kasalliklar faning rivojlanish tarixi, kasallik tushunchasi, simptom, sindrom, etiologiya, patogenez, kasallik klinikasi, tashxis, va uning turlarini tushunadi, kasallik tarixi sxemasi qoʻllay oladi.</p> <p>Bemorlarni bevosita va bilvosita tekshirish usullari haqida tushunchaga ega, bemorlarni shikoyatlari, kasallikning rivojlanish tarixi, hayot tarixi, fizik tekshiruvlari (palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya) asosida bemor holatiga baho bera oladi.</p> <p>Bemorlarni tibbiy asbob-uskunalar bilan tekshirishga tayyorlash va laboratoriya tekshiruvlariga tayyorlash qoidalarini biladi ba qoʻllay oladi. Asosiy asbob-uskunalar va laboratoriya tekshiruv usullarini biladi va farqlay oladi. Tibbiy hujjat va yoʻllanmalarni rasmiylashtirishni amalga oshira oladi.</p>	6 ta
2	<p>Nafas olish aʼzolari kasalliklari va nafas olish aʼzolari kasalliklarida hamshiralik ishi</p>	<p>Nafas olish aʼzolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari haqida bilib oladi. Nafas olish aʼzolari kasalliklari va ularning asosiy sabablari, keltirib chiqaruvchi omillarni, aniqlash usullarini biladi va qoʻllay oladi.</p> <p>Kasalliklar davosini, bemorlarni kuzatish va parvarish qilishni amalga oshira oladi. Bemorlarni davolash va sogʻligini qayta tiklashda ishtirok etadi.</p> <p>Bronxitlar kasalligi mohiyati, etiologiyasi, turlari, klinikasi, kechishi, asoratlarini biladi va turlarini farqlaydi. Bronxial astma xurujida shoshilinch yordam koʻrsatishni amalga oshira oladi. Oʻtkir pnevmoniyalar, oʻpka yiringlashi va plevritlar sabablari, klinikasini biladi va kasalliklarni davolash, oldini olish va parvarish koʻrsata oladi va bemorlarda hamshiralik ishi parvarishini amalga oshiradi. Tibbiy asbob-uskunali tekshirishlarga bemorni tayyorlash qoidalarini biladi va amalga oshira oladi. Bemorlarni tekshiruvlarga tayyorlay oladi.</p>	6 ta

3	Yurak-qon tomir tizimi a'zolari kasalliklari va yurak-qon tomir tizimi a'zolari kasalliklarida hamshiralik ishi	<p>Yurak-qon tomir tizimi a'zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari haqida bilib oladi. Yurak-qon tomir tizimi a'zolari kasalliklari va ularning asosiy sabablari, keltirib chiqaruvchi omillarni, aniqlash usullarini biladi va qo'llay oladi.</p> <p>Kasalliklar davosini, bemorlarni kuzatish va parvarish qilishni amalga oshira oladi. Bemorlarni davolash va sog'ligini qayta tiklashda ishtirok etadi.</p> <p>Gipertoniya kasalligi mohiyati, etiologiyasi, turlari, klinikasi, kechishi, asoratlarini biladi va turlarini farqlaydi. Gipertonik krizda shoshilinch yordam ko'rsatishni amalga oshira oladi. Stenokordiya va miokard infarkti, kardiogen shok, xushdan ketish sabablari, klinikasini biladi va shoshilinch yordam ko'rsata oladi va bemorlarda hamshiralik ishi parvarishini amalga oshiradi. Tibbiy asbob-uskunali tekshirishlarga bemorni tayyorlash qoidalarini biladi va amalga oshira oladi. Bemorlarni tekshiruvlarga tayyorlay oladi.</p>	6 ta
4	Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari va ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklarida hamshiralik ishi	<p>Ovqat hazm qilish a'zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari haqida bilib oladi. Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari, ularning klinik belgilari, kelib chiqish sabablarini, tekshirish usullari va davolash choralarini biladi. Gepatit kasalligi mohiyati, etiologiyasi, turlari, klinikasi, kechishi, asoratlarini biladi va turlarini farqlaydi. Ularning asoratlarini oldini olish choralarini ko'ra oladi va va bemorlarda hamshiralik ishi parvarishini amalga oshiradi. Me'dadan qon ketganda yordam ko'rsata oladi va bemorlarda hamshiralik ishi parvarishini amalga oshiradi. Bemorlarni davolash va sog'ligini qayta tiklashda ishtirok etadi, tibbiy hujjat va yo'llanmalarni rasmiylashtira oladi.</p>	2 ta
5	Buyrak va siydik ajratish yo'llari kasalliklari, buyrak va siydik ajratish yo'llari kasalliklarida hamshiralik ishi;	<p>Buyrak va siydik ajratish yo'llari a'zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari haqida bilib oladi. Buyrak va siydik yo'llari kasalliklarining sabablari, asosiy klinik belgilari, kechishi va asoratlarini biladi. O'tkir va surunkali glomerulonefrit, buyrak – tosh kasalligining asoratlarida shoshilinch yordamni tashkil eta oladi. O'tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligining kechishi, asoratlari, uremiya oldi holati va uremik koma klinikasi, kechishi, davolash usullarini biladi va bir-biridan farqlaydi, gemodializ haqida tushunchaga ega. Buyrak sanchig'ida shoshilinch yordam ko'rsata oladi. Buyrak tosh kasalligida hamshiralik ishini amalga</p>	6 ta

		oshiradi. Tekshirish usullarini va bemor parvarishini amalda qo‘llay oladi.	
6	Qon va qon ishlab chiqarish a‘zolari kasalliklari va qon va qon yaratish a‘zolari kasalliklarida hamshiralik ishi	Qon va qon ishlab chiqarish a‘zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari haqida bilib oladi. Qon va qon ishlab chiqarish a‘zolari kasalliklari (anemiya, leykoz, gemorragik diatezlar)ning klinik turlari, kelib chiqish sabablarini biladi. Bemorlarga shoshilinch holatlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni biladi va qo‘llaydi. Qon va qon yaratish a‘zolari kasalliklarida hamshiralik parvarishlashni amalga oshiradi. Bemorlarni davolash va sog‘ligini qayta tiklashda ishtirok eta oladi. Tibbiy hujjat va yo‘llanmalarni rasmiylashtira oladi.	6 ta
7	Ichki sekretiya bezlari va moddalar almashinuvi kasalliklari, ichki sekretiya bezlari va moddalar almashinuvi kasalliklarida hamshiralik ishi	Ichki sekretiya bezlari va moddalar almashinuvi a‘zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari haqida bilib oladi. Ichki sekretiya bezlari va moddalar almashinuvi kasalliklari (diffuz toksik buqoq, gipotireoz, endemik buqoq, qandli diabet) klinikasi, asoratlari, diagnostikasi, davolash usullari, oldini olishni biladi va qo‘llaydi. Tireotoksik kriz, giper- va gipoglikemik koma holatlarini kelib chiqish sabablari, shoshilinch yordam choralarini qo‘llaydi. Tekshirish usullarini va bemor parvarishini amalda qo‘llay oladi. Ichki sekretiya bezlari va moddalar almashinuvi kasalliklarida hamshiralik parvarishlashni amalga oshiradi. Laboratoriya tekshiruv natijalarini tahlil qila oladi.	4 ta
8	Suyak-mushak tizimi va biriktiruvchi to‘qima kasalliklari va suyak-mushak va biriktiruvchi to‘qima kasalliklarida hamshiralik ishi	Suyak-mushak tizimi va biriktiruvchi to‘qima a‘zolarining anatomo-fiziologik xususiyatlari haqida bilib oladi. Suyak-mushak va biriktiruvchi to‘qima kasalliklari (artritlar, surunkali kasalliklar) haqida tushunchaga ega bo‘ladi, bo‘g‘im kasalliklariga tashxis qo‘yishda rengenologik tekshiruvning mohiyatini biladi va bemorni tayyorlaydi. Revmatoid artritning etiologiyasi, klinikasi, kechishi, diagnostikasini biladi, davolash usullari, bemorlarni kuzatish, parvarishini qo‘llaydi.	2 ta
9	O‘tkir allergozlar. Allergiya va allergik kasalliklar. Allergik	Allergiya, allergen, antitelo, allergik reaksiyalar haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi. O‘tkir allergozlar (anafilaktik shok, Kvinke shishi, o‘tkir eshakemi)ning sabablari, klinikasi, kechishini farqlaydi, tez yordam ko‘rsatish, bemorlarni kuzatish va parvarish qilish qoidalarini biladi va amalga oshira oladi. Parxez bilan davolashni	2 ta

holatlarda hamshiralik ishi	qo‘llaydi. Atopik bronxial astmaning etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, diagnostikasi, davolash va profilaktika usullarini qo‘llaydi. Allergik holatlarda bemorlarni kuzatadi va parvarish qiladi. Tibbiy hujjat va yo‘llanmalarni rasmiylashtira oladi.
-----------------------------	--

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me‘yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini

testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. M. F. Ziyayeva , N.Q. Tuyeva Terapiyada hamshiralik ishi “Tafakkur avlodi” 2022 yil
2. Y.L.Arslonov, T.A.Nazarov, A.A.Bobomurodov Ichki kasalliklar “Ilm Ziyo” 2018 yil
3. G.O‘.Haydarov, Sh.X.Ermatov Ichki kasalliklar “Zar Qalam” 2005 yil

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*